

XOTIN-QIZLAR KASANACHILIGINI RIVOJLANTIRISH

Ushurova Gulchexra Shuxrat qizi

“Turan International University” Biznes boshqaruv fakulteti, Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda Mamlakatimizda kichik-biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar va yetarli darajada shart-sharoitlar yaratilgan. Xususan, Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish, va o‘qitish, dunyo qarashini kengaytirish, xuquqiy ongini yanada yuksaltirish bo‘yicha iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish, asosiy ustuvor vazifalardan biri ekanligi ko‘rib chiqildi va ularni to‘g‘ri baholash, boshqarish, yanada takomillashtirish yo‘llari tizimli tahlil qilindi va kerakli tavsiya hamda xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ayollar daromadi, ayollar tadbirkorligi, ayollar ulushi.

KIRISH

Bugungi kunda Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan yurtimizda ayol-qizlarimiz uchun alohida e‘tibor berib kelayotganliklarini ta’kidlab o‘tishimiz joiz. Xotin-qizlarimiz uchun yetarli ish o‘rinlarini yaratish va shu bilan birga ularni kasb-hunarga o‘rgatish, kasanachilik, qishloq xo‘jaligida ekin maydonlaridan foydalanishda ularga yetarlicha xom-ashyolarni yetkazib berish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishi bo‘yicha soha mutaxassislariga bir qator vazifalar yuklatilgani taqsgina sazovordir.

Biz bilamizki, o‘zbek ayol-qizlari jamiyatimiz taraqqiyoti uchun yetarlicha hissasini qo‘shib kelayotgani, albatta, barchamizni quvontirmay iloji yo‘q. Nafaqat yurtimizda, balki, jahon miqyosida ham o‘zbek ayol-qizlarining yetakchilik qilib kelayotgani tahsinga sazovordir. Bu olib borilayotgan islohotlar natijasida ayol-qizlarmiz doimiy ish bilan band qilinganligi, ularga o‘zlari qiziqqan sohalarda, soha mutaxassislari tomonidan tahsil olayotganliklarining natijasi desak, hech bir mubolag‘a bo‘lmaydi. Ta’lim olish jarayoni bilan birgalikda ularga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari, har bir oila daromadini yaxshilashga, o‘sha oilaning tinch-totuv va farovon hayot kechirishlariga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilayotgan mazkur jamoatchilik tuzilmasi zimmasiga yangi qarorga binoan qator muhim vazifalar yuklatildi. Jumladan, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ta’lim olishi va kasbiy ko‘nikma egallashi, ulari o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha ish bilan ta’minlashga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, iqtidorli yosh ayol-qizlarni aniqlash va o‘rganish ularning qobiliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda yashayotgan nozik jins vakillarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifati va ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini

qaror toptirish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha mas‘ul bo‘ladi. “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror orqali bu boradagi ishlarni jadallashtirish va yangi bosqichga olib chiqish, ta‘lim olishlari, hayotga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va ehtiyojmand ayollarning ijtimoiy himoyasini kengaytirish uchun mazkur jamg‘arma Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi sifatida qayta tashkil etilishi belgilandi. Oxirgi yillarda mamlakatimizda og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ehtiyojmand, boquvchisini yo‘qotgan, nogironligi bor va kam ta‘minlangan ayollarning uy olishi uchun boshlang‘ich badallarni to‘lab berish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu tizim orqali birgina o‘tgan yili Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi hisobidan 1 ming 246 nafar ayol uy-joy sotib olishi uchun 21 milliard 746 million so‘m miqdoridagi boshlang‘ich badal pullari to‘lab berildi.

Ma‘lumki, 2017 yil 7 fevralda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni asosida mukammal tarzda “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” ishlab chiqilib, bugungi kunda kuchga kirgan. Mazkur me‘yoriy hujjatning 3.4-bandida “...iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiyl mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish” kabi bajarilishi ustuvor bo‘lgan vazifalar belgilandi. O‘zbekistonda “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar” doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida “Gender tenglikni ta‘minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish” belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun xotin-qizlarning o‘z huquq va manfaatlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirishida ularni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi dasturlarni kengaytirish talab etiladi. 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur (keying o‘rinlarda-Milliy dastur) xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. O‘zbekiston qonunchiligida ayollarga quyidagi imtiyoz va yengilliklar mavjud:

1. Xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun 33 million so‘mgacha kreditlar ajratiladi. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi hisobidan 3 yilgacha va 6 oygacha imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada 33 million so‘mgacha kreditlar beriladi. Buning uchun ular quyidagi dasturlardan birini muvaffaqiyatli tugatgan bo‘lishi kerak:

Tadbirkorlikni

rivojlantirish agentligi, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ma‘qullangan dasturlar asosidagi o‘quv kurslari;

“Ishga

marhamat”

monomarkazlari, kasb-hunarga o‘qitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga o‘qitish maskanlari va Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari yoki nodavlat ta‘lim muassasalarining kasbga o‘rgatish o‘quv kurslarining maxsus o‘qitish dasturlari;

2. Ayollarni pensiya yoshiga to‘lgani sababli ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo‘shatish ta‘qiqlanadi.

Bunda ayollarning pensiya yoshiga to‘lgani yoki yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelgani sababli nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to‘lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasining muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilish mumkin emas.

3. Ayrim toifadagi xotin-qizlarga OTMga kirish uchun tavsiyanoma beriladi. Ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga oliy ta‘lim muassasalari kirishda davlat granti asosidagi qabul doirasida tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma beriladi. Tavsiyanoma quyidagi mezonlar asosida taqdim etiladi:

-kam ta‘minlangan oilalardagi xotin-qizlar;

-to‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya‘ni otasi yoki onasi yoxud ularning ikkalasi ham vafot etgan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar;

Milliy dastur O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida“, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida“, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori, xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan tamoyillari va me‘yorlari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi qoidalar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tayyorlangan.

Milliy dasturda xotin-qizlarning huquqlariga inson huquqlarining ajralmas bo‘lagi sifatida qaraladi hamda u “Inson qadri uchun” tamoyilidan kelib chiqqan holda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ayollar kasanachiligini rivojlantirish- bu jamiyatda ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish va ularning mustaqillik darajasini yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga yordam beradigan muhim masala ekanligini alohida ta‘kidlab o‘tishimiz zarur. Masalan, g‘arbda taniqli iqtisodchi olimlaridan xisoblangan E. Giddens, G.Sillaste, T.Parsonning ilmiy ishlarida ayollar mehnatining roli qay darajada ekanligini ilmiy hamda nazariy yondashuvlarga asoslangan holda, fikr va mulohazalarini bayon etganliklari fikrimiz dalili desak, hech bir mubolag‘a bo‘lmaydi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Hozirgi davrga kelib, yer yuzidagi ayollarning 0,5%i O‘zbekistonda yashaydi. Mamlakatimiz aholisining 15280,9 nafardan ziyodini ayollar tashkil etib, bu jami aholining 52,2%ni qamrab oladi. Boshqacha statistika bo‘yicha aytadigan bo‘lsak, Yurtimizda 15-60 yoshgacha bo‘lganlarning 52,4%ni ayollar tashkil etadi. Shunday ekan, ayol-qizlarimiz jamiyatimizning rivojlanishida o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Aniq qilib aytadigan bo‘lsak, ayol-qizlarimiz bozor subyektlari tarkibida ishtirok etib, iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarini rivojlantirishga o‘z xissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Yuqoridagilarga asos qilib, fikrimizni bayon qiladigan bo‘lsak, ayol-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish, hayotda o‘z o‘rinlarini topishda ko‘maklashish, ularning haq-huquqlarini himoya qilish va rivojlanishi uchun katta xizmat qiladi desak, hech bir mubolag‘a bo‘lmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xotin-qizlar masalalari har bir jamiyatda dolzarb muammolardan biridir va ularning fikrlari rivojlanish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Barcha sohalarda amalga oshiriladigan takliflar, ayollar kasanachiligini rivojlantirishni yanada samarali qiladi va ularning jamiyatdagi o‘rnini kuchaytiradi. Milliy dasturning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi xotin-qizlarning jamiyat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida teng huquqlar asosida to‘laqonli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Bir qator strategiyalar bilan ayollar kasanachiligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish mumkin:

1. Ta’lim va treninglar: Ayollarga kasanachilik bo‘yicha malaka oshirish va yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun treninglar tashkil etish;
2. Moliyaviy qo‘llab quvvatlash: Ayollar uchun mikro kreditlar va qo‘shimcha moliya manbalarini taqdim etish.
3. Tarmoq yaratish: Ayol kasanachilarni birlashtiruvchi tarmoq va tashkilotlarni yaratish, ular o‘rtasida tajriba almashish imkonini berish.
4. Innovatsiyalar: Yangi texnologiyalar va usullarni joriy etish orqali ish joylarini samarali qilish.
5. Stereotiplarni yengish: Jamiyatda ayollar kasanachiligiga bo‘lgan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgartirish va stereotiplarni bartaraf etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.03.2022 yildagi PF-87-son. <https://lex.uz>.
2. Aripov Oybek Abdullayevich, NamDU dotsenti, i.f.n. E-mail: oybekaripov@mail.ru
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni. lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.04.2017 yil PF-5016-sonli “O‘zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni. lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili institutini ta’sis etish to‘g‘risida”gi 05.05.2017 yil PF-5037-sonli farmoni. lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdagi PQ-2844 sonli “Tadbirkorlik subyektlari va keng axoli qatlamiga mikro kreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. lex.uz.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yildagi PQ-2746-sonli “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. lex.uz.

8. <http://qalampir.uz/news> (1 mart 2022)

9. Bekzod o‘g‘li, J. F. (2024). Kriminalistik huquq va jinoyatlarning oldini olish. International innovation and researches, 1(3), 53-55.

10. Kamiljanovna, Z. D., O‘G‘Li, A. S. J., & Jumayeva, M. B. (2022). The Analysis Of Higher Order Thinking Skills. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 672-676.

11. Bekzod o‘g‘li, J. F. (2024). O‘zbekistonda inson huquqlari va milliy qonunchilikni takomillashtirish. Международный журнал теории новейших научных исследований, 2(10), 173-176.